

“BIR KUNLIK YOZ” VA “XXI ASRNING 8 YOSHLI BOLASI” HIKOYALARIDA BOLALIK VA TABIAT KONSEPSIYASINING BADIY IFODASI

Shaxnoza Azimbayevna YULDOSHOVA

O‘zDJTU 1-bosqich mustaqil tadqiqotchisi,

yustitsiya@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola amerikalik yozuvchi Rey Bredberining “Bir kunlik yoz” va o‘zbek yozuvchisi Isajon Sultonning “Yigirma birinchi asrning sakkiz yashar bolasi” hikoyalaridagi bolalik va tabiat konsepsiyasining badiiy talqinlarining qiyosiy-tipologik tadqiqiga bag‘ishlangan. Ushbu hikoyalarda tabiat va bolalik o‘rtasidagi munosabatlar, atrof-muhit omillarining bolalar his-tuyg‘ulari va kechinmalari shakllantirishiga ta’siri, tabiatni qahramonning kamolotiga, o‘zini his qilishiga, tevarak-atrofdagi olam bilan bog‘lanishiga ta’sir etuvchi qudratli kuch sifatida ko‘rsatilishining badiiy ifodasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ilmiy-fantastika, tabiat konsepsiya, tabiat motivlari, tabiat va inson, quyosh, yomg‘ir, yozuvchi falsafasi, badiiy ifoda, timsol, ironiya.

Abstract. This article is focused on a comparative-typological study of artistic interpretations of the concept of childhood and nature in the stories of American writer Ray Bradbury's "All summer in a day" and Uzbek writer Isajon Sultan's "Eight-year-old child of the 21st century." These stories emphasise the connection between nature and childhood, the influence of environmental factors on the formation of children's feelings and experiences, the powerful influence of nature on the hero's maturation, self-perception, connection with the surrounding world, and artistic expression as a source of strength.

Keywords: science fiction, concept of nature, motifs of nature, nature and man, sun, rain, philosophy of writer, artistic expression, symbol, irony.

Kirish. Adabiyotshunoslikda badiiy konsepsiya deganda asar zamirida yotgan va uning tuzilishi, mazmuni va badiiy ifodasini belgilovchi umumiy g‘oya, asosiy mavzu yoki tushunchalar tushuniladi. Bu asarning barcha elementlarini birlashtirib, unga yaxlitlik va teranlik baxsh etadigan o‘ziga xos markaziy nuqtadir. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida “Konsepsiya- adabiyotda – biror asarning asosiy g‘oyasi; badiiy asar mohiyatini, ijodkorning „meni“ni ifoda etadi; badiiy asarning san’at, adabiyot va madaniyat tarixidagi o‘rnini hamda o‘quvchilar ommasiga ta’sir etish darajasini belgilaydi” [3] - deya ta’rif beriladi. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshov esa, badiiy asar konsepsiyasi qandayligini aniqlab olish yozuvchining olamni hayotdagiday emas, aynan, o‘zi tasvirlaganiday ko‘rish va ko‘rsatishining sabablarini tushuntirib berishi mumkin [4:97] bo‘lgan badiiy ifoda deb ta’riflaydi. Demak, badiiy asarni tayyor komponentlardan iborat taom sifatida ta’riflasak, konsepsiya uning tuz namagi va tugallik bosqichi sifatida tushunish mumkin bo‘ladi.

Rey Bredberining “Bir kunlik yoz” asari hasad, yolg‘izlik va inson tabiatining shafqatsizligi mavzularini tasvirlovchi ta’sirli va o‘ylantiruvchi hikoyadir. Hikoya syujeti tinimsiz yomg‘ir yog‘adigan Venera (Zuhro) sayyorasida bo‘lib o‘tadi, u yerda har yetti yilda bir kun bir necha soatgina quyosh porlagandan tashqari doimiy yomg‘ir yog‘adi. Asarda quyosh nurining kamdan-kam uchraydigan noyob hodisasini intqlik bilan kutayotgan bir guruh maktab o‘quvchilari haqida hikoya qilinadi. Hikoyaning asosiy ziddiyati bolalardan biri Margoning

Yerdagi quyosh haqidagi xotiralari va quyoshga bo'lgan intizorligi uchun sinfdoshlari tomonidan chetlatilgan va haqorat qilganida yuzaga keladi. Margoga nisbatan hasad va nafratda bo'lgan bolalar uni qisqa vaqt quyosh nuridan mahrum etib, shkaftga qamab qo'yishadi, bu esa ko'p yillar davomida birinchi marta quyoshni ko'rishga bo'lgan imkonni yo'qqa chiqaradi. Isajon Sultonning “XXI asrning 8 yashar bolasi” hikoyasida esa shom paytida televizor qarshisida o'tirib, har xil dasturlar va ularda berilgan yangilik va mavzularni o'z ongida tarozuda tortayotgan, tabiat va inson o'rtasidagi murakkab munosabatlarni anglashga urinayotgan bola tasvirlangan bo'lib, hikoyada tabiatning qahramon kamolotiga, o'zini his qilishiga, tevarak-atrofdagi olam bilan bog'lanishiga ta'siri yoritilgan. Hikoya tabiat telekanalinig mashxur bashoratchi sakkizoyoqning o'limiga bag'ishlangan ko'rsatuvi va olamonning uni o'limiga aza tutayotganining ta'rifi bilan boshlanib, suv toshqinlari bo'layotgan Kolumbiyalik bola tasviriyu, qurg'oqchilikdan aziyat chekayotgan Afrikadagi och-nahor bolakay obrazi, Amerika sohillariga o'zini urib halok etgan delfinlar tasvirlari beriladi. Hikoya syujetining bir uchida voqealarning OAV dagi bayoni tursa, ikkinchi tarafda esa bu voqealarga jamoatchilik va bolakayning reaksiyasi turadi, bu esa voqealar rivojining yanada jonli va haqqoniy chiqishiga xizmat qilgan.

“Bir kunlik yoz” hikoyasida Bredberi inson tabiatining hasad, shafqatsizlik va boshqalardan ajralib turish tendentsiyasi kabi qorong'u tomonlarini o'rganadi. Hikoya olomon mentalitetining xavf-xatarlari, boshqalarni chetlab izolatsiyalashtirib qo'yishning oqibatlari haqida ogohlantirishga harakat qiladi. “XXI asrning 8 yashar bolasi” hikoyasida ham inson tabiatining g'alati taraflari oddiygina ma'lumot berganday aytib o'tib ketiladi, hikoyada bola televizordagi xabarlar va kundalik dasturlarni tomosha qilayotgan bo'ladi. Aslida esa bu voqealar chuqur ildizga egaligi, odamzotning aql va tafakkurining xatolariyu, nafsining kamchiliklari, aqlining kemtiklari haqidagi murakkab o'ylar bo'lib chiqadi. Ikkala yozuvchi ham hikoyalari qahramon qilish orqali insoniyatning ham begunoh ham shavqatsiz qirralariga e'tibor qaratadilar. “XXI asrning 8 yoshli bolasi”da ham bolakay - *“Eti borib ustixoniga yopishib ketgan sakkiz yashar bolakay jizg'inagi chiqib ketgan tuproq ustida zo'rg'a sudralib, qayoqqadir holsiz-holsiz intilmoqda edi. “Afrikaning qurg'oqchil o'lkalaridan biridagi bu bolakay hozir ikki chaqirim naridagi oziq-ovqat tarqatish markazi tomon emaklab bormoqda. Ortidagi o'laksaxo'r esa bolaning joni chiqishini kutmoqda...” Tantanavor bir ovoz mazkur fotosuratning xalqaro Pulittser mukofotini olganini ta'kidlar, bolaning taqdiri nima bo'lgani esa noayon edi”*, [1] - xabarini eshitib shunchakki keyingi dasturga o'tib ketadi, yozuvchi bu holatga bolaning qanday e'tibor qaratganini ochiqqlamaydi. “Bir kunlik yoz” hikoyasida esa, boshqa bolalarning “...yolg'iz o'zi bir chetda qaqqayib turadigan”, “shu qadar zaif va rangpar bo'lib qolgan, bir paytlardagi chiroyni mana shu yomg'irlar yuvib ketgandek, go'yo... Moviy ko'zlar, pushti lablar, olovrang sochlar— barchasi xira tortib qolgandek, eski daftardan chiqib qolgan buklangan surat kabi...[6:111] (Margot stood alone. She was a very frail girl who looked as if she had been lost in the rain for years and the rain had washed out the blue from her eyes and the red from her mouth and the yellow from her hair. She was an old photograph dusted from an album, whitened away, and if she spoke at all her voice would be a ghost [5])” bo'lib qolgan Margoga qilayotgan munosabatlarida insonning baxtning o'tkinchi tabiati va ular kelganda quvonchli daqiqalarni qadrlash qanchalik muhimligi haqidagi timsol sifatida talqinlanadi. Hikoya agar hasad va mayda-chuydaliklar qarorimizni, ongimizni xiralashtirishiga yo'l qo'yadigan bo'lsak, imkoniyatlarni o'tkazib yuborishimiz va oqibatda afsus nadomatlariga qolshimizni ta'kidlab o'tadi.

Ikkala hikoyada ham yozuvchilar ko'pgina tabiat unsurlaridan timsol va majoziy ma'noda foydalanishgan. Rey Bredberining “Bir kunlik yoz” hikoyasidagi quyosh obrazi umid, quvonch va

erkinlikni, yaxshiroq narsaga intilish va yorqin kelajakni ifodalaydi. Bolalarning quyosh bilan uchrashishni kutishlari ularning baxt topish istagini va Veneradagi hayot bir xilligidan tanaffusni aks ettiradi. J.Kirlovning “Ramzlar lug’ati”da “quyosh chiqishini – ruhiy yorug’lik, kelajak bilan, quyosh botishini – o’lim va zulmat bilan” [2:301] bog’lanishini ta’kidlaydi. Shuningdek, odatda adabiyotshunoslikda yomg’ir poklash, tug’ilish va hayot ramzi sifatida timsollanadi, ammo tinimsiz yomg’irning yana qahramonlarni ta’qib qiladigan, halokat va umidsizlikni bashorat qiladigan sifati ham timsollanadi. (misol sifatida “Yo’qotilgan avlod” yozuvchilari, ayniqsa Ernest Hemingway ijodida bu timsoli yaqqol seziladi.) “Bir kunlik yoz” hikoyasida ham yomg’irning aynan shu timsolini ko’rishimiz mumkin, yetti yillab yog’adigan, bolalar-u kattalar, beton tunnellarda yashaydigan, yetti yil muddat bilan solishtirganda oniy lahzaga teng bo’lib qoladigan, bir yoki ikki soatlikgina quyosh nurlari aks ettirilganligidan o’zining quyoshli Yer sayyorasini tashlab kelgan odamlarni ta’qib qilayotganday, hikoyada umidsizlik va texnik halokatlar tasvirlanganday tuyg’u uyg’otadi.

Isajon Sultonning “XXI asrning 8 yashar bolasi” hikoyasida ham ko’pgina tabiat hodisalari sanab o’tiladi, chunonchi, Kolumbiyadagi suv toshqinlari, Afrikadagi qurg’oqchiliklar, Amerika sohillarida delfinlarning ommaviy o’zini halok qilishi, insoniyat texnologiyalar tahdidiga yo’liqqani uchun o’zi va sakkiz yashar o’g’li bilan birga yaponlarning qadim syoppuku an’anasiniga binoan o’z joniga qasd qilmoqchi bo’layotgan yapon olimi, olti oydan beri, Yer atrofida fazo kemasining ichida, aslida harbiy josuslik dasturiga ko’ra ish olib borayotgan uch fazogir, Yaponiyada esa gen o’zgartirishlari orqali qush kabi sayrovchi kalamushlar yaratilganligi kabi tabiat va texnakratlashgan inson jamiyatining o’zora ta’sirlari yorqin ifoda etiladi. Yozuvchi esa, bu xabarlariga bolakayning e’tibori, munosabatini “*Bola boshqa dasturga o’tdi*”, “*Bola keyingi dasturga o’tdi*”, “*TV-qimorxonada yutuq yutgan bolakay haqida- bola tengdoshining juda-juda zerikkanini, siqilganini va charchaganini, yutuq-putuq uni zarracha qiziqirtirmayotganini sezdi. Biroz achinish bilan qarab turib, yana boshqasiga o’tdi*”, “*Bola bundan ham zerikdi*”, “*Bola yana dastur almashtirdi*” [1] kabi ibora va gaplar bilan tasvirlaydi. Bu esa, inson zoti fe’lidagi beparvoligi, o’ziga tegishli bo’lmagan muommolarni e’tiboriga olishga urinmasligini, bola obrazi orqali aslida XXI asrda yashayotgan odamlarning ochlikdan azob chekayotgan bolakayning keyingi taqdiri emas balki, uning shu surati qanday mukofotni olganligi, insonning o’z joniga qasd qilish marosimini shou-dasturga aylantirib, “Biz bilan qoling” deya bong urayotgan telekanallar, yosh bolalarning shavqatsiz urib-tepishlarini qarsak chalib tomosha qilayotgan yosh qizlar-u nozik ayollar, “Yigirma birinchi asr – mutatsiya va misli ko’rilmagan evrilishlar asri bo’lajak!” [1] deb xitob qilayotgan olim, kabi insoniyatning xulqi, ahloqi va muommolarining razmi ekanligini, va ularni yozuvchi timsollar tili orqali maxorat bilan tasvirlaganini alohida ta’kidlash kerakdir.

Shuningdek, Rey Bredberining “Bir kunlik yoz” hikoyasidagi bolalar Margoni quyoshning qisqa lahzalaridan mahrum etib qamab, qulflab qo’yadigan shkaf qamoqqa olish, shafqatsizlik va o’zgacha fikrlovchilarni chetlashtirish, senzura qilish kabi ma’nolarni ham anglatadi. Bu hasad, bezorilik va olomon ruhiyati va mentaliteti kabi inson hatti-harakatlarining qorong’u tomonlarining, bundan tashqari, shkaf bolalar o’rtasida empatiya va tushunishga to’sqinlik qiladigan hissiy to’siqlarning jismoniy ko’rinishi ifodasi bo’lib xizmat qiladi. Bu hikoyada ham yozuvchi bolalar obrazi orqali aslida zamonaviy olaming katta kishilari fe’l atvorini, beparvoligini, o’zgalarni muhokama qilishga moyilligini tanqidga oladi. Hikoyada ironiya uslubi vositasi orqali, Bredberi umidlar va haqiqat o’rtasidagi kontrastni ta’kidlashga harakat qiladi. Bolalar va nihoyat quyoshni ko’rishdi, lekin Margoga qilgan nohaq munosabatlari tufayli uning iliq

lazzatlarini to'raligicha his qilolmay, afsus nadomatda qolishlaridagi muallif istehzosi buning dalilidir.

"Bir kunlik yoz" hikoyasida tabiatning qamoq va cheklanish ramzi sifatida tasvirlanishi bolalar boshdan kechiradigan hissiy va psixologik cheklovlar uchun metafora bo'lib xizmat qiladi, bu og'ir ekologik sharoitlarning ularning shaxsiyat va farovonlik hissiga ta'sirini ta'kidlaydi. Quyosh nuri va issiqlikning yo'qligi ularning mavjudligining qorong'iligi va bir xilligini ta'kidlab, haqiqatni idrok etishni shakllantirishda tabiatning o'zgartiruvchi kuchini ta'kidlaydi. Huddi shunday metaforik uslub "XXI asrning 8 yoshli bolasi" hikoyasida ham seziladi. Hikoya "*Vaqt shomga yaqinlashib qolgan edi.*" iborasi bilan boshlanib, "*Shu tariqa, tevarakka shom qo'ndi. Har kungiday, boshqalaridan farq qilmaydigan oddiygina bir shom*" [1] gapi bilan tugaydi. Sakkiz yasharlik bola tasvirlangan shom payti! Aslida Sharq adabiyoti va madaniyatida shom payti qorong'ulik va umr oxirining ramzi sifatida tasvirlanadiku, nima uchun yozuvchi aynan shu vaqtni bola televizordagi olam yangiliklarini tasvirlash uchun tanlagani ana shu ikki gapning orasidagi voqealarda jo bo'ladi. Qolaversa hikoyaning nomi ham "Yigirma birinchi asrning sakkiz yashar bolasi" ekanligi ham hozirgi texnokratlashgan ijtimoy-iqtisodiy hayotimizning, farzandlarimizga bizdan qolayotgan (qanday ahvolda va sharoitda?) tabiat va olam haqidagi chuqur mulohazalar va o'ylovlarni aks ettiradi. [7]

Xulosa qilib aytganda har ikkala hikoyada ham, tabiat va bolalik kontseptsiasining ta'sirchan tadqiqini taklif etadi, atrof-muhit sharoitlarining bolalarning hissiy holati, idroki va tasavvuriga chuqur ta'sirini yoritadi. Og'ir ekologik voqelikni o'tkinchi go'zallik va hayratlanarli lahzalar bilan birlashtirib, o'quvchilarni tabiat va inson ongi o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni ko'rib chiqishga taklif qiladi va tabiatning o'zimiz va atrofimizdagi dunyo haqidagi tushunchamizni shakllantirishdagi o'zgartiruvchi kuchini ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Isajon Sulton. Yigirma birinchi asrning sakkiz yashar bolasi. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/isajon-sultonov-1967/isajon-sulton-yigirma-birinchi-asrning-sakkiz-yashar-bolasi-hikoya>
2. J. E. CIRLOT. A DICTIONARY OF SYMBOLS. Taylor & Francis e-Library, 2001. English translation. Routledge & Kegan Paul Ltd. Second edition 1971. 507p. 301P.
3. O'zME. Beshinchi jild. Toshkent, 2003-yil
4. Qozoqboy Yo'ldoshev «Yoniq so'z». «Yangi asr avlodi», 2006 yil, 548b. 97bb.
5. Ray Bradbury, "All summer in a day", The Magazine of Fantasy & Science Fiction. USA. 1954.
6. Rey Bredberi, "Bir kunlik yoz" Adabiyot [Matn]: 6-sinf uchun darslik / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b. 111B.
7. Zebo Sabirova. (2024). The Blessing of Words (About the Book "Ruhni Uyg'otguvchi So'z" ("Spirit Awakening Word") by Ulugbek Hamdam, Literary Critic). European Journal of Humanities and Educational Advancements, 5(3), 28-32. <https://scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/4395/3498>